

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOSHQARUV STRATEGIYASI

Ergasheva Ma'mura Rahimovna

Buxoro shahar Romitan tuman 33-Dmtt direktori

Ergashevamamura1988@gmail.com

+99899 548 88 85

Annotatsiya: Maqolamizda biz shuni ko'rsatmoqchimizki, kasbiy mahorat, ko'nikmalar asosida turli xil masalalarning ijobiy yechimlarini topishda boshqaruv faoliyatining mazmuni, rahbarning teran fikrlash tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga mos javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligi muomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tadbirkorligi, boshqarilayotgan ta'lim tashkilotining kelgusidagi samarali faoliyatidagi ishtiroki, xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, tafakkur, bola, yosh jihat, sifatlari, rivojlanish, o'yin, tarbiya muhit, ta'lim tizimi,

Ma'lumki, barcha davlatlarda pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo'qligi, davlat bog'chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o'zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, shu jumladan xonalarning hatto kichik elementar detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiena ko'nikmalarini tarbiya qilish maktabgacha ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi. Fikrimiz mazmunidan kelib chiqib ba'zi bog'chalarning faoliyatiga nazar tashlaymiz. Xususan Koreya bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash mashg'ulotlari integratsion shaklda tashkil etiladi. Koreys

bog'chalarida bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi ma'naviyaxloqiy sifatlarni shakllantirishga asosan katta e'tibor berilishi, ta'limtarbiya jarayonini uzviylikda olib borilishi, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida Koreya tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini kengligini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayoni bolaning shaxsiyati, axloqiy fazilatlari va intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu yoshda bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, kommunikativ ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuvi rivojlanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimi bolaning har tomonlama kamol topishini ta'minlovchi usul va metodlarga asoslangan bo'lishi zarur.

Zamonaviy boshqaruv tamoyillari deganda, tashkilotning samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar, integratsiyalashgan tizimlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish tushuniladi. Xususan, ta'lim sifatini nazorat qilish, kadrlarni boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi jihatlar zamonaviy boshqaruvning ajralmas qismlaridir. Ushbu tamoyillarni to'g'ri tashkil etish orqali nafaqat ta'lim muassasasi ichki jarayonlarini yaxshilash, balki ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Bugungi tez rivojlanib borayotgan davrda MTT boshqaruv kadrlari har tomonlama intellektual salohiyatli, o'z faoliyatiga jiddiy qaraydigan, har bir bajarayotgan vazifasiga ijodiy yondashadigan rahbar sifatida faoliyat olib borishini taqozo etmoqda. Chunonchi, rahbarning teran tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligi, ijodiy fazilat va xislatlarga, iymon-e'tiqodga, muomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tashkilotchi va tadbirkorligi u boshqarayotgan ta'lim tashkilotining kelgusidagi samarali faoliyatini belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv tamoyillarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish va muassasalarning samarali faoliyatini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida, zamonaviy boshqaruv tamoyillari, axborot texnologiyalarini joriy etish, kadrlar siyosatini takomillashtirish va ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali ta'lim tashkilotlarining boshqaruv tizimi samarali ishlashi mumkinligi aniqlangani ma'lum bo'ldi. Boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, pedagoglarning malakasini oshirish va resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq innovatsion yondashuvlar, maktabgacha ta'lim muassasalarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ammo, texnologiyalarni joriy etishdagi moliyaviy cheklovlar, pedagoglarning haddan tashqari yuklanishi va boshqaruv tizimlarining zaifligi kabi muammolarni bartaraf etish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarur.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, inson bolasi qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo'lgan layoqat bilan dunyoga keladi. Layoqat "mudroq" holatda bo'lib, uning uyg'onishi - rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishni talab qiladi. Bu uyg'onish jarayoni aynan ijtimoiy muhitda sodir bo'ladi, takomillashadi va bolaning komil shaxs sifatida kamol topishida, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida xizmat qiladi. maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va Respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshkent, N. (2018). Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 45-52
2. Karimova, L. (2020). Axborot texnologiyalari asosida maktabgacha ta'limni boshqarish. Xalq ta'limi va pedagogika, 12(4), 32-40.

3. Muhammadiyeva, F. (2023). MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH YO'LLARI. Interpretation and researches, 2(1).
4. Turakulovna, M. F. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA TEXNOLOGIYA TA'LIMI: BOLALARGA ARTEFAKTLARDAN FOYDALANISH VA YARATISH IMKONIYATLARINI TA'MINLASH: Muxammadiyeva Feruza.
5. Ismoilova, F. (2019). Pedagogik kadrlarni malakasini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Maktabgacha ta'lim metodikasi, 8(3), 78-84. 4. Nizamov, M. (2021). Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari. Oliy ta'lim va pedagogika ilm-fani, 6(1), 25-34.
6. Yusupov, S. (2017). Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish: maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi amaliyot. Ta'lim strategiyasi, 9(1), 58-64